Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA BOLALARDA SALMONELLYOZ INFEKSIYASINING KECHISH XUSUSIYATLARI VA ZAMONAVIY DIAGNOSTIKASI

Atamuratova Qundiz Jarilqasinovna
Assistent
Qoraqalpog‘iston Tibbiyot Instituti
https://doi.org/10.5281/zenodo.23390970

Dolzarbligi

Orolbo‘yi hududi, xususan Qoraqalpog‘iston Respublikasining o‘ziga xos iqlim va ekologik sharoiti bolalar o‘rtasida o‘tkir ichak infeksiyalari, jumladan salmonellyozning kechishini murakkablashtiruvchi omillardan hisoblanadi. 5–10 yoshli bolalarda massiv doza hisobiga infeksiya yuqqanda, kasallik yuqori intoksikatsiya va tezkor degidratatsiyaga (eksikozga) moyilligi bilan ajralib turadi. Bunday sharoitda asoratlarning oldini olish va davolash samarasini oshirish uchun zamonaviy molekulyar-genetik diagnostika usullarini erta qo‘llash hamda hududiy kechish xususiyatlarini tizimli o‘rganish o‘ta dolzarb vazifadir.

Tadqiqot maqsadi

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Bolalar yuqumli kasalliklar shifoxonasiga yotqizilgan Nukus shahridagi salmonellyoz infeksiyasiga chalingan 40 nafar 5–10 yoshli bolalarning klinik kechish xususiyatlari va zamonaviy diagnostika usullarining samaradorligini baholash.

Material va metodlar

Tadqiqot obyekti sifatida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Bolalar yuqumli kasalliklar shifoxonasiga yotqizilgan 40 nafar bemor bolaning (o‘g‘il bolalar – 52,5%, qiz bolalar – 47,5%) kasallik tarixlari retrospektiv tahlil qilindi. Bemorlarning o‘rtacha yoshi 7,4±1,2 yoshni tashkil etdi. Diagnostika maqsadida an’anaviy bakteriologik usul (najas va qusiq massalarining ekmasi) hamda zamonaviy molekulyar-genetik usul — PZR (PCR) diagnostikasi o‘zaro qiyosiy tahlil qilindi.

Olingan natijalar va ularning muhokamasi

- **Klinik kechish xususiyatlari:** Kasallik 100% holatda o‘tkir va to‘satdan boshlandi. Yetakchi klinik simptomlar majmuasi intoksikatsiya va gastroenterit sindromlari bilan namoyon bo‘ldi. Bemorlarning 92,5%ida (37 nafar) tana harorati qisqa vaqt ichida 38,5–39,8 °Cgacha ko‘tarildi va o‘rtacha 3,4±0,6 kun davom etdi. Qayta va tinimsiz qusish 85,0% (34 nafar) bolalarda qayd etildi (sutkasiga 3 dan 8 martagacha).
- **Diareya va asoratlar xarakteri:** Najas xarakteri suyuq, ko‘pikli, o‘ziga xos noxush hidli va to‘q-yashil tusda («botqoq tinasi») bo‘ldi. Bemorlarning 30,0%ida (12 nafar) kasallikning 2-kuniga kelib yo‘g‘on ichak zararlanishi (gastroenterokolit) belgilari — axlatda shilimshiq va qon aralashmalari aniqlandi. Issiq iqlim sharoitida bolalar organizmida suv-elektrolit almashinuvining yanada tez buzilishi oqibatida, 65,0% (26 nafar) holatda II va III darajali eksikoz (teri va shilliq qavatlar quruqligi, oliguriya, gemodinamika beqarorligi) juda qisqa muddatda rivojlandi.

• **Zamonaviy diagnostika samaradorligi:** Klassik bakteriologik usul yordamida 82,5% holatda qo‘zg‘atuvchi (Salmonella enteritidis) aniqlangan bo‘lsa-da, yakuniy faqatgina 3-5-kunlari yetib keldi. Zamonaviy PZR (PCR) diagnostikasi esa 95,0% holatda ijobiy natija ko‘rsatdi va qo‘zg‘atuvchining DNKini aniqlash vaqti bor-yo‘g‘i 4-6 soatni tashkil etdi. Bu esa yakuniy tashxis vaqtini an’anaviy usulga nisbatan 24–48 soatga qisqartirish imkonini berdi.

Xulosa

1. Qoraqalpog‘iston Respublikasi iqlim sharoitida bolalarda salmonellyoz infeksiyasi qisqa inkubatsion davr (6–12 soat), yuqori foizli gipertermiya (92,5%), og‘ir intoksikatsiya va issiq iqlim ta’sirida 65,0% holatda o‘ta tez rivojlanuvchi eksikoz (degidratatsiya) bilan kechishi bilan tavsiflanadi.

2. Klinik tashxisni erta tasdiqlashda PZR (PCR) usuli an’anaviy bakteriologik usulga nisbatan yuqori sezuvchanlikka (95,0%) ega bo‘lib, tashxislash vaqtini sezilarli darajada qisqartiradi va bemorlarni o‘z vaqtida maqsadli davolashga yordam beradi.

3. QR Bolalar yuqumli kasalliklar shifoxonasi amaliyotida molekulyar diagnostikani erta qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘lib, u to‘g‘ri davolash (etiotrop va intensiv regidratatsiya) taktikasini ilk soatlardanoq belgilash hamda asoratlar ko‘rsatkichini kamaytirish imkonini berdi.